

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**O'ZBEKISTON MAMLAKATI MIQYOSIDA INGLIZ TILIGA BERILGAN E'TIBOR VA
IMKONIYATLAR**

Yuldasheva. F.F

Ilmiy rahbar:

O'zDJTU katta o'qituvchisi

Adashaliyeva Yoqutxon Dilmurod qizi

Muallif:

O'zDJTU 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston mamlakati miqyosida ingliz tiliga berilgan e'tibor hamda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar haqida so'z yuritiladi. Asosan, O'zbekistonda hozirgi vaqtida olib borilayotgan jarayonlar ham yoritilgan.

Аннотация: В этой статье обсуждается внимание, уделяемое английскому языку в Узбекистане, и возможности, предоставляемые молодежи. В основном, текущие процессы в Узбекистане также охватываются.

Annotation: This article talks about the attention paid to the English language in the country of Uzbekistan and the opportunities created for young people. Mainly, the current processes in Uzbekistan are also covered.

Kalit so'zlar: BMT, YUNESKO, Chet tili, CEFR, El-yurt umidi, tendensiya, Yevropa.

Ключевые слова: ООН, ЮНЕСКО, иностранный язык, CEFR, надежда, Эль-Юрта, Тенденсия, Европа.

Key words: UN, UNESCO, Foreign language, CEFR, Hope of the country, Trend, Europe.

Til muloqot qilish va dunyo bo'ylab insonlarning bir-birlari bilan aloqada bo'lislari va mamlakatlارaro yaxshi munosabatlarni o'rnatishning birlamchi vositasidir. Zamonaviy dunyoda ingliz tili boshqa tillarga nisbatan turli davlatlar, mamlakatlар va mintaqalarda istiqomat qiluvchi ko'proq odamlar tomonidan foydalilaniladigan til sifatida boshqa tillardan ajralib turishi sir emas. U bugungi kunda meditsina, injenerlik, jurnalizm, ta'lim, biznes, ilm-fan, texnologiya va ommaviy axborot vositalari, farmakologiya ilmiy izlanishlar kabi ko'plab sohalarida yetakchi rol o'ynayotgan til bo'lib qoldi. Ingliz tilini xalqaro til maqomiga olib chiqqan bir qancha omillar mavjud. Internetdagi aksar ma'lumot ingliz tilida bo'lganligi tufayli bu tilni biladigan va veb-saytlardan kerakli ma'lumotni o'z vaqtida olishga imkoni bo'lgan mutaxassislarga talab kundan-kunga ortib bormoqda. [1,999]

Jahon mamlakatlarning eng ko'p ingliz tilida muloqot sifatida foydalilanayotgan davlatlar Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) va Buyuk Britaniya hisoblanadi. Bu ikki mamlakatning o'rtaSIDA hozirgi kungacha jamiyat uchun tushunarsiz bo'lib kelayotgan

til munosabatlari shakllangan. Har bir mamlakat bu tilga o'zi tomondan yangiliklar kiritishga harakat qiladi. AQSHning yosh avlodiga taniqli bo'lgan Noa Uebster lug'atning o'zi kashf etgan variantini o'rganishni taklif qilgan.

Dunyo bo'y lab 1,75 milliarddan ortiq kishi ingliz tilida gaplashadi - bu dunyodagi har 4 kishidan 1 tasi demakdir. Bu ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti - YUNESKOning 2010 yilda qabul qilgan qaroriga asosan mazkur tillarning har biri uchun xalqaro til kuni belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq 23 aprel - xalqaro ingliz va ispan tili kuni deb e'tirof etilgan .

O'zbekistonliklarning ingliz tilini o'rganishga qiziqishi tobora ortib borar ekan, mazkur tendensiya ayrim tahlilchilar nazdida O'zbekistonning AQSH va G'arbiy Yevropaga yaqinlashish istagidan dalolat bermoqda. O'zbekistonda oliy o'quv yurtigacha bo'lgan har qanday ta'lim muassasasining bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini bilishi shart, degan edi prezident Shavkat Mirziyoyev o'tgan yilning may oyida. Bu talab Mirziyoyevning mamlakat jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishi mumkinligiga ishonchidan kelib chiqqan.[2,876] Shuningdek, O'zbekistonda ushbu tilni o'qitish va yosh avlodni tilga nisbatan ko'nikmasini yaxshilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori qabul qilingan. Ushbu qarordan so'ng keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda. 2016-yilda yurtimizdag'i 25 ta oliy ta'lim muassasasida o'qitish chet tilida olib borilmoqda. 2016-yilda ular atigi 7 ta edi .

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, "Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rinni egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini" o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xalqaro til sertifikati olgan bitiruvchi o'quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshgan. Joriy yilda "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali 1012 nafar talabaning nufuzli xorijiy universitetlarda o'qishi uchun stipendiyalar ajratilmoqda. Bundan tashqari CEFR ya'ni Xalqaro Yevropa ta'lim standartlarining talablari bo'yicha to'rtta: (writing, reading, listening, speaking) o'qitilib salmog'li natijalarga erishilmoqda.

EF Education First kompaniyasining davlatlarning Ingliz tilini bilish darajasi reytingida O'zbekiston 100 mamlakat ichidan 95-o'rinni egallab turibti. Umuman

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

olganda, Osiyo mamlakatlari orasidan faqat Singapur mazkur reytingning kuchli o‘ntaligiga kirgan yagona davlat bo‘lib, beshinchi o‘rinni egallagan .

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarning xorijiy tillar va umumta’lim fanlari bo‘yicha nodavlat ta’lim tashkilotlarida o‘qish xarajatlarining 50 foizi, biroq umumiyligi hisobda BHMning 5 baravarigacha bo‘lgan miqdori hamda ular bo‘yicha milliy sertifikatlar olish uchun o‘tkaziladigan imtihonlarni topshirish xarajatlari Yoshlar ishlari agentligiga Davlat byudjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan kompensatsiya qilinadi. Shu bilan birga davlat tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimning ingliz tilini bilishini isbotlovchi xalqaro va milliy sertifikati bo’lsa, oltin sertifikatining natijasiga qarab oyligiga 50 foizgacha ustama qo’shish amaliyoti jariy qilingan.

Umuman olganda O’zbekiston mamlakatining ingliz tiliga berilayotgan e’tibor bu yoshlarga berilgan imkoniyatdir, chunki har bir yosh qo’shimcha bir tilni biladi degani bir tarixni biladi deganidir. Jamiyatning rivojlanishi uning yoshlarning rivojlanishi bilan o’lchansa, yoshlarning rivojlanishi esa mamlakat tomonidan yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar bilan o’lchanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Xolmatova M.I. "Umumta’lim maktablari ingliz tili darslarida til ko’nikmalarini rivojlantirish" (maqola). Science and education,2022. –999-bet.
2. Temirov R. "O‘zbekistonda ingliz tiliga talab kuchaymoqda" (maqola). Karvonsaroy,2022. –876-bet.

INTERNET RESOURCES:

- 1.Inson huquqlari bo‘yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markazi web saytidan olingan ma’lumot. <https://pravacheloveka.uz/oz/articles/23-aprel-ingliz-tili-kuni>
- 2.<https://learnenglish.britishcouncil.org/general-english/magazine-zone/english-language-day>
- 3.<https://kursi24.uz/uz/news/chet-tillarni-o-qitish-tizimi-tubdan-takomillashtiriladi>
- 4.<https://itsm.uz/uz/press-releases/view?id=49>